

## MAQOL TIL VA NUTQ BIRLIGI SIFATIDA

**Sharipova Guljaxon Bolikulovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi.

E-mail: [guljaxonsharipova758@mail.com](mailto:guljaxonsharipova758@mail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada fransuz maqollarni paremiologik nuqtai nazardan tadqiq etiladi. Xususan, ularning til va nutq birligi sifatida kommunikativ-pragmatik funksiyalari hamda madaniy-etnik muammolari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqollarning pragmatik xususiyatlari lingvistik jihatdan gap ko'inishida bir ma'noliligi, vaziyatli kontekstda turli ma'nosiga ko'ra ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** maqol, paremiologiya, kommunikativ-pragmativ funksiya, madaniy-etnik vazifa, til va nutq birligi.

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются французские пословицы с паремиологической точки зрения. В частности, рассматриваются их коммуникативно-прагматические функции как языковой и речевой единицы, а также культурно-этнические проблемы. Также прагматические свойства пословиц раскрываются лингвистически в соответствии с их однозначностью в форме предложения, различной значимостью в ситуативном контексте.

**Ключевые слова:** пословица, паремиология, коммуникативно-прагматическая функция, культурно-этническая задача, единство языка и речи.

**Annotation:** This article examines French proverbs from a paremiological point of view. In particular, their communicative and pragmatic functions as a linguistic and speech unit, as well as cultural and ethnic problems are considered. Also, the pragmatic properties of proverbs are revealed linguistically in accordance with their unambiguity in the form of a sentence, different significance in a situational context.

**Keywords:** proverb, paremiology, communicative and pragmatic function, cultural and ethnic task, unity of language and speech.

Maqolning tildagi o'rnini aniqlash zamonaviy fransuz paremiologiyasining dolzarb vazifalaridan biridir. Ayni paytda bu masala bo'yicha yagona nuqtai nazar yo'q. Ushbu masala yuzasidan tadqiqotchilar tomonidan quyidagi fikrlar ilgari surilgan: 1) maqollar supralingvistik semiotik kategoriyaning birligi b'lib, til birliklaridan farq qiladi [10]; 2) maqollar til birliklari tarkibiga kiruvchi kommunikativ frazeologik birliklar [3]; 3) maqollar til birliklari tarkibiga kiruvchi paremiologik birliklardir [5]; 4) maqollar jumla tuzilishiga ega frazeologik birliklar bo'lib, o'z ma'nosida umuminsoniylik g'oyasiga ega, nisbiy diskursiv mustaqillik bilan ajralib turadi [1]; 5) maqollar ham til birliklari, ham nutq birliklari hisoblanadi [9].

M.A.Cherkasskiyning ta'kidlashcha maqollar ifoda va mazmun plani o'rtasidagi nomuvofiqlik darajalari tufayli, aforizm va sentitivlik xususiyatlariga ega bo'lgan boshqa maqollar qatorida lisoniy va nolisoniy ifodalardan farqli bo'lgan supralingvistik semiotik daraja birliklariga kiradi [9].

Yana bir nuqtai nazar shundan iboratki, maqollar kommunikativ frazeologik birliklardir ya'ni, sodda yoki murakkab gap tuzilishiga ega bo'lgan va shu orqali tilda o'zining kommunikativ-pragmatik vazifasini amalga oshiruvchi frazeologik birliklar qatoriga kiradi [10].

Tadqiqotchilarning fikricha, “Maqol frazeologiyani yuqori chegarasi va matnning pastki chegarasi bo'lib, komponentlari ma'noni o'zida mujassam etgan minimal matndir” [8].

Demak, maqollar ham til birliklari, ham nutq birliklari hisoblanadi.

Maqollar tilshunoslar tomonidan til birliklari sifatida tasniflanadi, chunki ular ma'lum bir rasmiy semantik tuzilishga ega bo'lgan tayyor shakllardir. G.L.Permyakov maqollarning tuzilishiga ko'ra “yopiqlik – ochiqik” mezoni ularni nutqda doimiy va o'zgarmas shaklda qo'llash imkonini beradi, deya ta'kidlaydi. Uning fikricha maqollar grammatik to'liqlik darajasiga ko'ra mustaqil gap sifatida ifodalanadi[5], masalan, *le mur de l'Atlantique – Atlantika dolg'asi, po'rtanasi, baland to'lqini* [11]. Bu maqolning ma'nosi tarixiy hodisa bilan bo'liq, ya'ni jahon urushida nemis armiyasi Fransiyani bosib olgandan keyin Yevropa ittifoqi hujumidan himoyalani uchun Atlantika okeani bo'yida Norvegiya va Daniyadan tortib to Ispaniya chegarasigacha mustahkam qo'rg'on yaratgan, ya'ni osmonga qancha baland ko'tarilsang ham, baribir yana yerga qaytib tushasan ma'nosida. Demak, maqollar faqat turg'un komponentlardan tashkil topgan yopiq gaplar bilan ifodalanishi mumkin.

So'z tipida iboralarning til birliklariga mansub maqollarning kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy, madaniy, etnik funksiyasini to'liq ifoda etadi [5].

Maqollar olam manzarasining mantiqiy natijasi bo'lib, gnoseologik vazifani bajaradi, masalan *“Menez un âne à la Mecque vous n'en ramènerez jamais qu'un âne; Eshakni Makkaga olib borganing bilan halol bo'lmaydi; ahmoq ahmoqligicha qoladi.*

Kommunikativ funksiya maqollarning bevosita maqsadini ifodalaydi, masalan, *Jean ne le saura jamais – Yoshlikda o'rganilgan hunar, o'zingga o'ljaga qolar yoki Yoshlikda o'rganilgan bilim, toshga o'yilgan naqsh; il y a à la faire, plus d'un âne qui s'appelle Martin – besh qo'l baravar emas.*

Maqollar borliqning sub'ekti va ob'ekti bo'lgan odamlarga, bilish va atrofdagi dunyoni o'zgartirishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatga ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Odamlarning o'zaro munosabati til yordamida amalga oshiriladi. Binobarin, maqollar ham ijtimoiy, ham tarbiyaviy vazifani bajaradi, shu tariqa odamlar jamoasini tashkil qiladi:

*Se qu'on apprend au berceau dure jusqu'au tombeau – “Gamburni qabr tuzatadi, o'jarni to'ntak”; Bukrini go'r tuzatar. De toujours vivre ne te fie, car courte et brève est notre vie - “Bugungi ishni ertaga qo'yma”.*

Maqollarning madaniy vazifasi ularda madaniy ob'ektlarning mavjudligi bilan bog'liqdir, ya'ni avlodlar avlodga o'tadigan sub'ektiv ma'lumotlar.

*Le blanc et le noir ont fait Venise riche – “Oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yorug'” Paris ne s'est pas bâti en un jour - “Musulmonchilik asta sekinlik bilan”.*

Maqollarda etnik funksiya amalga oshiriladi, chunki ular etnik ob'ektlarning yaratilishiga hissa qo'shadi va shu bilan odamlarga milliy-madaniy darajada ta'sir qiladi [8]. Masalan: *C'est un avocat (médecin) de Valence, longue robe et courte science - “Valensiyalik advokatni kiyim-kechak bilan kutib oladi va aql bilan kuzatib boradi”;* *Dauphinois, fin matois, ne vous y fiez pas - “Dauphine aholisi ayyor qallob. Jonim deya jonizni oladi”.*

Shu bilan birga, maqollar ham nutq birligidir, chunki ular folklor va adabiyotning boshqa asarlari (V.N. Teliya, S.V. Sidorkov va boshqalar) bilan bir qatorda qat'iy shaklda mavjud bo'lgan

“mikromatnlar” hisoblanadi va nutqda muhokamani davom ettirish uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, so’zlashuv nutqda asosan maqollar qo’llaniladi. Ba’zi lingvistik tadqiqotlarda “ so’zlashuv nutq” tushunchasi nutqning eng tabiiy shakli – to’g’ridan-to’g’ri muloqot jarayonida ishlaydigan dialogni tavsiflash uchun ishlatiladi (L.V. Shcherba va boshqalar). Binobarin, maqollar dialogik nutqning bir qismi sifatida fikrni til orqali ifodalash va shakllantirishning tashqi vositalaridan biridir[6].

Ba’zi maqollar ma’nosi ko’p ma’lumot bermasa-da, tez-tez takrorlanishi ularning pragmatik funksiyasini oshiradi. G.D. Sidorkovaning ta’kidlashicha, muloqot nafaqat ma’lumotni uzatish jarayonini, balki suhbatdoshga ma’lum bir ta’sir ko’rsatish usulini ham anglatadi, chunki tildagi maqol va maqollarning asosiy maqsadi bir qator pragmatik munosabatlarni ifodalashdir [7].

Maqollarning murojaat qiluvchining kommunikativ niyatiga muvofiq ta’siri ular tomonidan nutqning asosiy funksiyalarini amalga oshirish bilan bog’liq.

Xulosa qilib aytganda, maqol sekin-asta til-nutq tizimining to’laqonli va ko’p funksiyali elementiga aylanadi. Maqol til-nutq quyi tizimining va inson tili-madaniyati sistemasining bir qismidir. Maqolning tuzilishi, tashqi belgisining pragmatik-argumentativ nutq birligi sifatida shakllanishi mazkur til hodisasining til-nutq quyi tizimi birligi sifatida nutqiy vaziyatlarda ishlatish maqsadlari va ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bu xususiyatlar maqolni tanqidiy munozaraning istalgan bosqichida ishlatishga imkon beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Баранов, А.Н., Добровольский, Д.О. Аспекты теории фразеологии. – М.: Знак, 2008. – С.156.
2. Белецкая, А.Ю. Пословица как прецедентная единица в аргументативном дискурсе: автореф. дис. канд.филол.наук.: Самара, 2002. – С. 200.
3. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1986. – 336 с.
4. Крикманн, А. Опыт объяснения некоторых семантических механизмов пословицы // Паремииологические исследования: сборник статей. – М.: Наука. - 1984. – С. 149-179.
5. Пермяков, Г.Л. Основы структурной паремииологии. – М., 1988. – 236 с.
6. Санарова, Е.Г. Трансляция паремических выражений как аспект переводческой практики: дисс. канд. филол. наук: спец. 10.02.20/ Санарова Елена Григорьевна. Краснодар, 2005. – С.105.
7. Сидоркова, Г.Д. Прагматика паремий: пословицы и поговорки как речевые действия: дис. докт. филол. наук: спец. 10.02.19/ Сидоркова Галина Даниловна. Краснодар, 1999. – С.322.
8. Черкасский, М.А. Опыт построения функциональной модели одной частной семиотической системы. // Паремииологический сборник: Пословица, загадка (структура, смысл, текст). - М.: Наука. - 1978. – С. 35
9. Чернышева, И.И. Принципы систематизации фразеологического материала немецкого языка. // Язык и стиль. – М., 1993. – С.26 – 31.
10. Sodikovna, Kurbonova Gulsara. “Fransuz va o ‘zbek tillaridagi to‘qima frazeologizmlarning chog‘ishtirma tahlili”. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 1.1 (2021): 222-226.